

**MEXANIKA VA INSHOOTLAR SEYSMIK MUSTAHKAMLIGI
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.T/FM.61.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**MEXANIKA VA INSHOOTLAR SEYSMIK MUSTAHKAMLIGI
INSTITUTI**

ADILOV FARXADJAN FOZILJONOVICH

**PLASTIK DEFORMATSIYALANISHNI HISOBGA OLGAN HOLDA
YORIQLARGA EGA BO'LGAN MATERIALLARNI
MUSTAHKAMLIKKA HISOBLASH USULINI ISHLAB CHIQISH**

01.02.04 – Deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasi

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

**Fizika - matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации
доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)
on Physical-mathematical Sciences**

Adilov Farxadjan Foziljonovich

Plastik deformatsiyalanishni hisobga olgan holda yoriqlarga ega bo'lgan
materiallarni mustahkamlikka hisoblash usulini ishlab chiqish.....3

Адилов Фархаджан Фозилжонович

Разработка метода расчета на прочность трещиноватых материалов
с учетом пластического деформирования.....23

Adilov Farxadjan Foziljonovich

Development of a method for calculating the strength of cracked
materials taking into account plastic deformation43

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works46

**MEXANIKA VA INSHOOTLAR SEYSMIK MUSTAHKAMLIGI
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.T/FM.61.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**MEXANIKA VA INSHOOTLAR SEYSMIK MUSTAHKAMLIGI
INSTITUTI**

ADILOV FARXADJAN FOZILJONOVICH

**PLASTIK DEFORMATSIYALANISHNI HISOBGA OLGAN HOLDA
YORIQLARGA EGA BO'LGAN MATERIALLARNI
MUSTAHKAMLIKKA HISOBLASH USULINI ISHLAB CHIQISH**

01.02.04 – Deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasi

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/FM511 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi M.T. O'rozboyev nomidagi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.instmech.uz) va "Ziyonet" axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Abirov Rustam Abdullayevich
fizika-matematika fanlari doktori

Rasmiy opponentlar:

Axmedov Akram Burxanovich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Abdusattorov Abdusamat
texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Toshkent arxitektura – qurilish universiteti.

Dissertatsiya himoyasi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti huzuridagi fan doktori ilmiy darajasini beruvchi DSc.02/30.12.2019. T/FM.61.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 йил "21" "fevral" soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100125, Toshkent, Do'rmon yo'li ko'chasi, 33, 1-majlislar zali. Tel: (99871) 262-71-52; Faks: (99871) 262-71-32, e-mail: instmech@academy.uz).

Dissertatsiya bilan Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (19 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100125, Toshkent, Do'rmon yo'li ko'chasi, 33-uy. Тел.: (99871) 262-71-52).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «2» "fevral" kuni tarqatildi.
(2024 yil «2» "fevral" dagi 19 raqamli reester bayonnomasi).



M.M. Mirsaidov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor, O'zR FA akademigi

M.K. Usarov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, f-m.f.d., professor

B.E. Xusanov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, f-m.f.d., k.i.x.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissyertasiyasining annotasiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda muhim ahamiyatga ega bo'lgan zilzilabardosh inshootlarni qurish, aviasiya sanoatida, mashinasozlik va boshqa sohalarida yoriqlar rivojlanishi bilan bog'liq masalalarni hal qilish dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Shu jihatdan yangi materiallarning hamda qattiq jismlarning mustahkamligi va buzilishi muammolarini o'rganish hozirgi kunda nazariy va amaliy jihatdan muhim vazifa hisoblanadi. Bu nafaqat nazariy tadqiqotlar, balki keng ko'lamli eksperimental tadqiqotlarni o'z ichiga olib, konstruksiyalarning mustahkamligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda yuklanish ta'sirida elastik yoki plastik muhitdagi yoriqlarning boshlanishi va tarqalishining matematik modellarini ishlab chiqish, shu bilan birga shikastlanishlar bilan bog'liq amaliy tadqiqotlar va maqsadli ilmiy ishlarni olib borishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yoriqlarning rivojlanishi qurilish, quvurlar o'tkazish, energetika va mashinasozlik sohalarida katta iqtisodiy yo'qotishlarga olib keladi. Yoriqlarning tarqalishini modellashtirishda yoriq frontida singulyarlikka ega bo'lgan kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatini baholash, turli konstruksiyalarning mustahkamligini ta'minlashda zarur vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu muammolarni mazkur tadqiqotda taklif qilingan usullar yordamida qisman hal qilish mumkin.

Respublikamizda bugungi kunda aholining seysmik xavfsizligini ta'minlash va turli inshootlarning seysmik mustahkamligini oshirishning yangi usullarini joriy etishga katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli «2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmonida, jumladan, «...hududlarning “o'sish nuqtalari”dan kelib chiqib, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma ob'yektlarini qurishga alohida e'tibor qaratish...»¹ bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda yangi turdagi fibrobeton, bazalt va boshqa materiallardan foydalangan holda ob'ektlarning yoriqbardoshligini ta'minlashning samarali usullarini ishlab chiqish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish zaruriy vazifalardan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 30 maydagi PF-144-son «O'zbekiston Respublikasining seysmik xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 16 maydagi PQ-158-sonli «O'zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi, 2020 yil 30 iyuldagi PQ-4794-sonli «O'zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta'minlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining IV. «Matematika, mexanika va informatika» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Hozirgi vaqtda plastik deformatsiyalanishni hisobga olgan holda yoriqlarga ega bo'lgan materiallarni mustahkamligini hisoblash bo'yicha bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda, shu jumladan V.M. Kornev, L.A. Kostireva, M.N. Perelmutter, A.V. Savinovskiy, E.A. Artamonovna, D.A. Pojarskiy, V.M. Mirsalimov, V.I. Smirnov, S.S. Mayer, A.A. Ashrabov, Yu.V. Zaysev, P. Bandil, D. Khan, W. Cao, Q. Lei, P. Fedelinski, B. Gommerstadt, L. Igumnov, W. Becker. H. Noguchi, Y. Furuya, S. Tanaka, H. Wong, H. Zhou va boshqalar bu yo'nalishda salmoqli ilmiy ishlar olib borib muayyan darajada natijalarga erishganlar.

Materiallardagi yoriqlarni ilmiy tadqiq etish va buzilish mexanikasi asoslari Griffithsning ishlaridan boshlangan. U o'z ishlarida shisha namunalarni sindirish bo'yicha tadqiqot natijalarini taqdim etdi. Tashqi kuchlar ta'sirida jismda elastik deformatsiyaning potensial energiyasi to'planadi va yorilish kengayganda esa potensial energiyaning ma'lum bir qismi ajralib chiqadi, deb taxmin qilingan. Griffiths o'z ishida yoriq o'sishidan hosil bo'ladigan yangi sirtga nisbatan yoriqning o'ziga (ya'ni, yoriq uchlaridagi atomlararo bog'lanishlarni uzish uchun) ko'proq energiya sarflansagina yoriq o'sishi mumkinligini ko'rsatdi. Bu yondoshuv mo'rt buzilish energetik kriteriyasi deb nom oldi. Aynan shu mo'rt buzilish yondoshuvi G.P. Cherepanov va uning ilmiy maktabi: Ye.F.Afanasyev, A.A.Borzix, A.S.Bikovsev, A.B.Kaplun, L.A.Kipnis, V.D.Kuliyev, V.M.Mirsalimov, Ye.M.Morozov. V.Z.Parton, V.M.Smolskiy, I.E.Esparragoza, Qin Ma va boshqalar ishlarida rivojlantirilgan.

G. R. Irwin, M.P. Wnuk, E. Orowan, J.R. Rice, H.D. Bui, Hutchinson, H. Liebowitz, Guy Pluvineage, S.V.Serensen, G.I. Barenblatt, Yu.N.Rabotnov, L.M.Kachanov, L.I. Slepian, Ye.I. Shemyakin, M.Ya. Leonov, N.F. Morozov, A. Ye. Andreykiv, V.R.Skalskiy, M.P. Savruk, N.A.Maxutov, S.N.Leonovich va boshqalar nazariy va amaliy buzilish mexanikasiga sezilarli hissa qo'shgan olimlar hisoblanadi.

Respublikamizda ushbu yo'nalishda A.S. Bikovsev, J.S. Tavbayev, D.B. Kramorovski va boshqa bir qator olimlar seysmologik masalalarni yechishda yoriqlarni paydo bo'lishi va tarqalishini tizimli o'rganish bo'yicha izlanishlar olib borishgan. Konstruksiya elementlarining past siklli yuklanishi natijasida shikastlanishning paydo bo'lishi bilan bog'liq masalalar E.I. Starovoytov va A. Abdusattarov tomonidan o'rganilgan. Umuman olganda, elastoplastik buzilish masalalarini yechish va yoriqlar mexanikasini rivojlantirish tizimli yondashuvni talab qiladi. Ko'p jihatdan yoriqlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi bilan bog'liq bunday turdagi masalalarni hal qilish eksperimental laboratoriyalarda amalga oshiriladi. Bu sohada hozirgi vaqtda respublikamizda bo'shliq paydo bo'lgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Mexanika va inshootlarning seysmik mustahkamligi institutining tadqiqot rejasining №FA-F-4-

004 “Murakkab deformatsiya jarayonlarida konstruksion materiallarning elastoplastik deformatsiyasini eksperimental va nazariy o‘rganish” (2017-2020), №FA-Atex-2018-24 “To‘plangan shikastlanishlar mavjud bo‘lgan inshootlarning mustahkamligini hisoblashning amaliy usullarini ishlab chiqish va ularni mustahkamlash bo‘yicha takliflar tayyorlash” (2017-2020) mavzularidagi loyihalar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi materiallarning haqiqiy xususiyatlarini, yoriqlar shaklida to‘plangan shikastlanishlarni hisobga olgan holda konstruksiya elementlarini hisoblash usulini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

yoriqlarga ega bo‘lgan plastinalarda kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatini aniqlashning noxiziqli masalasini shakllantirish;

ko‘chishlarda fundamental yechim asosida kuchlanish konsentratorlari mavjud bo‘lgan materiallar uchun noxiziqli masalani yechish usulini ishlab chiqish;

noxiziqli deformatsiyalarni hisobga olgan holda uzlukli ko‘chish usuli asosida masalani shakllantirish va ishlab chiqilgan yechish usulini asoslash;

materialdagi kuchlanish konsentratsiyasi darajasini yoriq o‘lchamiga va chigaraviy shartlarga bog‘liqligini aniqlash;

jismlarda mavjud bo‘lgan muntazam yoriqlar tizimini matematik modellashtirish va masalani yechish usulini ishlab chiqish.

Tadqiqot ob‘yekti kuchlanish konsentratorlari yoki dastlabki yoriqlar mavjud bo‘lgan materiallarning holati va ularning mustahkamlik xossalari hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti materialning xossalariga bog‘liq holda yoriqlarning rivojlanish jarayonlarining qonuniyatlari va xususiyatlarini o‘rganish, matematik modellarni va tekis masalada buzilish nazariyasi masalalarini yechish usullarini ishlab chiqish tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasi usullari, chegaraviy integral tenglamalar usuli, chiziqli algebraning sonli usullari qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

yoriqlarga ega bo‘lgan plastinalarda kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatini aniqlashning noxiziqli masalasi chegaraviy elementlar usulida shakllantirilgan va chekli soha uchun yechish usuli Papkovish-Neyberning fundamental yechimiga asosan ishlab chiqilgan;

ko‘chishlardagi elastiklik nazariyasi masalasini fundamental yechimi asosida kuchlanish konsentratorlari mavjud bo‘lgan materiallarning noxiziqli masalasini yechish uchun uzlukli ko‘chishlar usuli ishlab chiqilgan;

yoriqlarning rivojlanishiga oid tekis masala sonli yechimlariga asoslangan hisoblar natijasiga ko‘ra kuchlanish konsentratsiyasi qiymatining yoriq o‘lchamiga bog‘liqligining grafik ko‘rinishidagi qonuniyati taklif qilingan hamda boshlang‘ich yoriqqa ega bo‘lgan jismda chegaraviy shartlarning kuchlanish konsentratsiyasiga bog‘liqlik darajasi aniqlangan;

anizotrop muhit sifatida muntazam yoriqlar tizimiga ega bo'lgan jism modellashtirilgan, chegaraviy integral tenglamalar usuli asosida uni yechishning sonli sxemasi taklif qilingan va uning asosida chegaraviy masalani yechish uchun sonli natijalar olingan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

kuchlanish konsentratorlari mavjud bo'lgan elastik plastinalarni hisoblash usuli ishlab chiqilgan;

yoriqlarga ega bo'lgan plastik jismlarda yoriq atrofidagi kuchlanganlik holatini aniqlash usuli va dasturi ishlab chiqilgan;

ular asosida yoriqlar rivojlanishini cheklash uchun materiallarni mustahkamlash usullari taklif qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Olingan natijalarning ishonchliligi singulyar integral tenglamalarni yechish usullaridan to'g'ri foydalanish, olingan natijalarni analitik yechimlar va eksperimental ma'lumotlar bilan solishtirish, shuningdek boshqa mualliflarning yechimlari bilan taqqoslash bilan asoslanadi. Tadqiqot natijalari bir qator xorijiy jurnallarda, shu jumladan Scopus va WoS xalqaro bazalariga kiritilgan maqolalar chop etilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati materiallarning mustahkamlik xususiyatlarini hisoblash uchun uzlukli ko'chish usulidan foydalanish matematik asoslanganligi, shuningdek kuchlanish konsentratorlari ko'rinishidagi dastlabki shikastlanishlar mavjud bo'lgan jismlar uchun elastik, elastoplastik masalalarni hisoblash usullari ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati yoriq va yoriqlar tizimlarining materialning mustahkamlik xususiyatlariga ta'siri darajasini aniqlashdan iboratdir.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Plastik deformatsiyani hisobga olgan holda yoriq materiallarning mustahkamligini hisoblash usulini ishlab chiqish bo'yicha dissertatsiya ishida olingan natijalar asosida:

boshlang'ich yoriqlarga ega bo'lgan metall, temir-beton va kompozit panel materiallarda yoriqlar ta'sirini statik yuklanganlik holatini hisoblash usuli Farg'ona politexnika instituti qoshidagi "FARPI HITECH ENGINEER" UK tomonidan binolarini texnik holatini baholash uchun qo'llanilgan (O'zR qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2023 yildagi 22 iyunidagi 24-06/6801-sonli ma'lumotnomasi). Ilmiy tadqiqot natijalari turar-joy binolarining texnik holatini baholash va ularning mustahkamligini ta'minlash uchun yoriqlarni hisobga olib ishlov berishda mehnat unumdorligi 1.2 baravar oshishiga va ob'yektlarning buzilishi ehtimoli kamayishiga erishilgan;

bino va inshootlarni tashkil etgan qurilish materiallarida boshlang'ich yoki paydo bo'lgan yoriqlarni tarqalishi, statik charchashlarini aniqlash va kechiktirilgan buzilishlarni oldini olish uchun ishlab chiqilgan usuli Farg'ona politexnika instituti qoshidagi "FARPI HITECH ENGINEER" UK tomonidan Farg'ona shahri, Sh.Rashidov MFY, S.Temirov ko'chasi, 57d-uyda joylashgan 5 qavatli turar joy binosini zilzilabardoshlik bo'yicha tekshiruvdan o'tkazish, konstruksiyalarining seysmik mustahkamligini baholashga joriy etilgan (O'zR qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2023 yildagi 22 iyunidagi 24-

06/6801-sonli ma'lumotnomasi). Ilmiy tadqiqot natijalari kompozit materiallarning to'plangan shikastlanish darajasini hisoblash va uning parametrlarini nazariy usullar bilan aniqlash, eksperimental tajribalar o'tkazishga nisbatan iqtisodiy samaradorligini 18% oshirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 14 ta ilmiy konferensiyada, shu jumladan 11 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-texnik konferensiyalari va seminarlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 21 ta ilmiy ish chop etilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan falsafa fanlari doktorlik (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini nashr etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 16 ta ilmiy maqola chop etilgan, jumladan 5 ta respublika va 11 ta xorij va Scopus bazasiga kiritilgan jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 121 bet bo'lib, 70 ta rasm, 1 ta jadval va 185 nomdagi adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari belgilab olingan, hamda tadqiqot ob'yekti va predmeti aniqlangan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, ishning yangiliklari, nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etilganlik holati hamda nashr etilgan ishlar va dissertatsiya ishining tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Shikastlangan materiallarning mustahkamligini aniqlash to'g'risida”** deb nomlangan birinchi bobida tutash muhit mexanikasi va yoriqlar mexanikasining mustahkamligi kriteriyalarining hozirgi zamon holati ko'rib chiqilgan. Ushbu mavzu bo'yicha ko'plab ilmiy ishlar tahlil qilingan. Shuningdek, kuchlanish konsentratori bo'lgan jismlar uchun tekis masalani yechish usullari keltirilgan.

Elastik masalalar uchun ko'chishlarga nisbatan yechim (fundamental yechim) Papkovich–Neyber yechimi asosida olingan. Koordinatalar yo'nalishi bo'yicha tekislik deformatsiya shartida bir jinsli, izotrop, chiziqli-elastik jismda x va y o'qlari bo'ylab ko'chish komponentalarini quyidagicha yozib olamiz:

$$\left. \begin{aligned} u_x &= B_x - \frac{1}{4(1-\nu)} \frac{\partial}{\partial x} (xB_x + yB_y + \beta) + \alpha_1, \\ u_y &= B_y - \frac{1}{4(1-\nu)} \frac{\partial}{\partial y} (xB_x + yB_y + \beta) + \alpha_2, \end{aligned} \right\} \quad (1)$$

bu yerda B_x , B_y va β - xajmiy kuchlarni xisobga olmaganda, Laplas tenglamasini qanoatlantiradiga Papkovich funksiyalari. Papkovich funksiyalar to'plamini ikkita

xususiyl shaklini tanlash qulay bo'radi, ulardan biri jismga ko'ndalang yuklardan xoli $y=0$ tekislikda mos keladigan, ikkinchisi esa o'sha tekislikda normal kuchlardan xoli. Bu ikkala aniq yechim (1.1) tenglamalarni tekis deformatsiya uchun kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik munosabatiga qo'yish yo'li bilan topiladi va B_x , B_y va β larni shunday tanlash kerakki, $y=0$ da yoki $\sigma_{xy}=0$, yoki $\sigma_{yy}=0$ bo'lsin. Papkovich funksiyalarini ushbu ko'rinishda tanlasak:

$$\left. \begin{aligned} B_x &= 0, \\ B_y &= 4(1-\nu)\frac{\partial\phi}{\partial y}, \\ \beta &= 4(1-\nu)(1-2\nu)\phi, \end{aligned} \right\} \quad (2)$$

bu yerda $\Delta\phi=0$, ko'chishlar va kuchlanishlarni quyidagi garmonik funksiya ko'rinishda ifodalanish mumkin:

$$\left. \begin{aligned} u_x &= -(1-2\nu)\frac{\partial\phi}{\partial x} - y\frac{\partial^2\phi}{\partial x\partial y} + \alpha_1, \\ u_y &= 2(1-\nu)\frac{\partial\phi}{\partial y} - y\frac{\partial^2\phi}{\partial y^2} + \alpha_2, \end{aligned} \right\} \quad (3)$$

$$\left. \begin{aligned} \sigma_{xx} &= 2G\left(\frac{\partial^2\phi}{\partial y^2} + y\frac{\partial^3\phi}{\partial y^3}\right) - \sigma_{xx}^{pl}, \\ \sigma_{yy} &= 2G\left(\frac{\partial^2\phi}{\partial y^2} - y\frac{\partial^3\phi}{\partial y^3}\right) - \sigma_{yy}^{pl}, \\ \sigma_{xy} &= -2Gy\frac{\partial^3\phi}{\partial x\partial y^2} - \sigma_{xy}^{pl}. \end{aligned} \right\} \quad (4)$$

Agar Papkovich funksiyalarini ushbu ko'rinishda kiritsak:

$$\left. \begin{aligned} B_x &= 0, \\ B_y &= 4(1-\nu)\frac{\partial\chi}{\partial x}, \\ \beta &= 8(1-\nu)^2\frac{\partial\chi}{\partial x}dy, \end{aligned} \right\} \quad (5)$$

bu yerda $\Delta\chi=0$, ko'chishlar va kuchlanishlarni quyidagi garmonik funksiya ko'rinishda ifodalanish mumkin:

$$\left. \begin{aligned} u_x &= 2(1-\nu)\frac{\partial\chi}{\partial y} + y\frac{\partial^2\chi}{\partial y^2} + \alpha_1, \\ u_y &= (1-2\nu)\frac{\partial\chi}{\partial x} - y\frac{\partial^2\chi}{\partial x\partial y} + \alpha_2, \end{aligned} \right\} \quad (6)$$

$$\left. \begin{aligned} \sigma_{xx} &= 2G \left(2 \frac{\partial^2 \chi}{\partial x \partial y} + y \frac{\partial^3 \chi}{\partial x \partial y^2} \right) - \sigma_{xx}^{pl}, \\ \sigma_{yy} &= -2Gy \frac{\partial^3 \chi}{\partial x \partial y^2} - \sigma_{yy}^{pl}, \\ \sigma_{xy} &= 2G \left(\frac{\partial^2 \chi}{\partial y^2} + y \frac{\partial^3 \chi}{\partial y^3} \right) - \sigma_{xy}^{pl}. \end{aligned} \right\} \quad (7)$$

Yuqoridagi tenglamalarni va cheksiz muhit uchun yoriq atrofida ($y=0$ da $x=-a$ ba $x=a$) quyidagi chegaraviy shartlarni qanoatlantiradigan funksiyalar aniqlangan.

$$\left. \begin{aligned} \sigma_{xy}(x,0) &= 0, \quad -\infty < x < \infty, \\ u_y(x,0) &= 0, \quad |x| > a, \\ \lim_{y \rightarrow 0_+} u_y(x,y) - \lim_{y \rightarrow 0_-} u_y(x,y) &= D_y, \quad |x| < a, \end{aligned} \right\} \quad (8)$$

$$\begin{aligned} \phi(x,y) &= \frac{D_y}{4\pi(1-\nu)} \left[y \arctan\left(\frac{x+a}{y}\right) - y \arctan\left(\frac{x-a}{y}\right) + \right. \\ &\quad \left. (x+a) \ln \left[(x+a)^2 + y^2 \right]^{\frac{1}{2}} - (x-a) \ln \left[(x-a)^2 + y^2 \right]^{\frac{1}{2}} \right], \end{aligned} \quad (9)$$

$$\left. \begin{aligned} \sigma_{yy}(x,0) &= 0, \quad -\infty < x < \infty, \\ u_x(x,0) &= 0, \quad |x| > a, \\ \lim_{y \rightarrow 0_+} u_x(x,y) - \lim_{y \rightarrow 0_-} u_x(x,y) &= D_x, \quad |x| < a, \end{aligned} \right\} \quad (10)$$

$$\begin{aligned} \chi(x,y) &= \frac{D_x}{4\pi(1-\nu)} \left[y \arctan\left(\frac{x+a}{y}\right) - y \arctan\left(\frac{x-a}{y}\right) \right. \\ &\quad \left. + (x+a) \ln \left[(x+a)^2 + y^2 \right]^{\frac{1}{2}} - (x-a) \ln \left[(x-a)^2 + y^2 \right]^{\frac{1}{2}} \right]. \end{aligned} \quad (11)$$

Birinchi bob chegaraviy integral tenglamalar yechimining mavjudligi va yonaligini isboti bilan tugagan.

Dissertatsiyaning “Uzlukli ko‘chishlar sonli usuli” deb nomlangan ikkinchi bobida sonli usulning qo‘llash algoritmi bilan birga olingan natijalarning ishonchliligini ta‘minlash uchun bir qancha mavjud analitik yechimlar bilan solishtirilgan. Turli chegaraviy shartlarda va turli o‘lchamdagi yoriqlarga ega bo‘lgan materiallarda yoriq uchidagi kuchlanishlar grafiklari qurilgan.

Yoriqlar bilan bog‘liq masalalarni ko‘rib chiqishda uzlukli ko‘chishlar usuli juda qulaydir, chunki u fazodagi birlik yoriqqa asoslangan fundamental yechimdan olingan. O‘zgarmas elementlar uchun (har bir element o‘zgarmas deb hisoblanadi), uzlukli ko‘chishlar usuli quyidagicha ifodalanadi:

$$\begin{aligned}
u_x &= D_x [2(1-\nu)f_{,y} - yf_{,xx}] + D_y [-(1-2\nu)f_{,x} - yf_{,xy}] + \alpha, \\
u_y &= D_x [(1-2\nu)f_{,x} - yf_{,xy}] + D_y [2(1-\nu)f_{,y} - yf_{,yy}] + \beta, \\
\sigma_{xx} &= 2GD_x [2f_{,xy} + yf_{,xyy}] + 2GD_y [f_{,yy} + yf_{,yyy}] - \sigma_{xx}^{pl}, \\
\sigma_{yy} &= 2GD_x [-yf_{,xyy}] + 2GD_y [f_{,yy} - yf_{,yyy}] - \sigma_{yy}^{pl}, \\
\sigma_{xy} &= 2GD_x [f_{,yy} + yf_{,yyy}] + 2GD_y [-yf_{,xyy}] - \sigma_{xy}^{pl}.
\end{aligned} \tag{12}$$

bu yerda D_i - uzlukli ko'chish, $f(x, y)$ quyidagicha ifodalanadigan funksiya:

$$\begin{aligned}
f(x, y) = & -\frac{1}{4\pi(1-\nu)} \left[y \left(\arctg \frac{y}{x-a} - \arctg \frac{y}{x+a} \right) - \right. \\
& \left. - (x-a) \ln \sqrt{(x-a)^2 + y^2} + (x+a) \ln \sqrt{(x+a)^2 + y^2} \right]
\end{aligned} \tag{13}$$

Yoriqlarning yo'nalishi tekislikda ixtiyoriy bo'lishi mumkinligi sababli, har bir chegaraviy elementda lokal koordinatalar sistemasidan foydalanilgan. Chegaradagi kuchlanish va ko'chishlarni hisoblashning umumiy formulasi quyidagicha lokal koordinatalar sistemasida yozib olingan:


$$\left. \begin{aligned} \sigma_s^i &= \sum_{j=1}^N A_{ss}^{ij} D_s^j + \sum_{j=1}^N A_{sn}^{ij} D_n^j - \sigma_s^{i(pl)}, \\ \sigma_n^i &= \sum_{j=1}^N A_{ns}^{ij} D_s^j + \sum_{j=1}^N A_{nn}^{ij} D_n^j - \sigma_n^{i(pl)}, \end{aligned} \right\} \tag{14}$$

$$\left. \begin{aligned} u_s^i &= \sum_{j=1}^N B_{ss}^{ij} D_s^j + \sum_{j=1}^N B_{sn}^{ij} D_n^j + u_s^{i(o)}, \\ u_n^i &= \sum_{j=1}^N B_{ns}^{ij} D_s^j + \sum_{j=1}^N B_{nn}^{ij} D_n^j + u_n^{i(o)}. \end{aligned} \right\} \tag{15}$$

Masala yechimi (14) va (15) sistemalardan $2N$ tenglamalarni tanlash va ulardan noma'lum uzlukli ko'chishlarini aniqlash (agar ular masala shartlariga ko'ra berilgan bo'lmasa) yo'li bilan olinadi. Ko'rib chiqilayotgan jimsning chegarasi (va yoriqlar qirg'oqlari) bo'ylab uzlukli ko'chishlar topilib, qolgan qiymatlar chegaradagi va jismning ichki nuqtalaridagi kuchlanishlar va ko'chishlar sifatida aniqlanadi. Bu holda, ichki sohaning bo'laklarga ajratish hech qanday tarzda chegaradagi bo'laklarga bo'lishga bog'liq emas.

Usulni ishonchliligini sinab ko'rish uchun analitik yechimga ega bo'lgan ichki bosim (elastik) bilan yoriqni ochish masalasini ko'rib chiqamiz. Yechim Kolosov tomonidan Gursa formulasi asosida olingan.

(14) va (15) tenglamalar sistemasini $E=2$; $\nu=0.3$; $p=5$; $l=a=1$ (yoriq uzunligining yarmi) qiymatlarda sonli yechib va yoriqni $n=10, 20, 40$ o'zgarmas elementlarga bo'laklab, tekis kuchlanganlik holati va tekis deformatsiyalanganlik holatida yoriqning davom etish chizig'i bo'ylab kuchlanish taqsimoti keltirilgan.




1-rasm. Yoriqning davom etish chizig'i bo'ylab σ_{yy} kuchlanish o'zgarishi

1-rasmdan ko'rinib turibdiki, yoriqning uzunligiga teng masofada bo'laklarning turli zichligida sonli hisob-kitoblar deyarli farq qilmaydi. Yoriq uchi yaqinida (0,11 masofada) tafovutlar sezilarli (30% gacha) va bo'laklar soniga bog'liq. Bo'laklarning zichligi oshishi bilan qiymatlar Gursa hisob-kitoblariga yaqinlashadi (farq 5% gacha).

Shuningdek, olingan yechimning ishonchliligini tekshirish uchun yoriq qirg'oqlarining ko'chishi topilgan. Tekis deformatsiya holatida Sneddon yechimiga asoslangan quyidagi analitik yechim olingan:

$$u_y(x, y=0) = \pm p \frac{1-\nu}{G} \sqrt{2xl - x^2}, \quad 0 \leq x \leq 2l. \quad (16)$$




2-rasm. Yoriq qirg'og'ining ko'chishi

Yechimning aniqligi ko'p jihatdan bo'laklashga bog'liq. Yoriqni 40 ta elementga bo'laklasak Sneddonning analitik yechimidan qiymatlar farqi 1% dan oshmasligi, 10 ta elementga bo'linganda, bu farq 4% ni tashkil etishi ko'rsatilgan (2-rasm).

Ko'rib chiqilgan algoritm asosida kuchlarning haqiqiy qiymatlari berilganda cheksiz sohada yoriq masalasi uchun yechim olingan. Cheksizlikda OX va OY o'qlari yo'nalishi bo'yicha 100 MPa cho'zuvchi kuch qo'yilgan. Muhit materiali uchun quyidagi qiymatlar berilgan: $\nu=0.3$, $E=2.00E+5$ MPa. Masala mo'rt buzilish konsepsiyasi (chiziqli buzilish mexanikasi) asosida yechiladi. 3-rasmda tekis kuchlanganlik holatida kuchlanish sirti


ko'rsatilgan. Kuchlanish taqsimoti yoriq atrofidagi 1×6 m o'lchamdagi sohada berilgan. Yoriq uzunligi 1 m deb qabul qilingan.



3-rasm. Yoriq atrofidagi kuchlanishlar tarqalishi


Olingan natijada yoriq chetidagi (kuchlanish konsentratori) oquvchanlik chegarasidan oshib ketadigan kuchlanishning asimptotik o'sishi ko'rsatilgan. Kuchlanish komponentlarining o'sishi yoriq uchida asimptotik tarzda oshishi mo'rt buzilish mexanikasining qoidalariga mos keladi.

To'rtburchaklar devor-ramasi uchun chegaraviy elementlar va chekli elementlar usullari asosida olingan yechimlarni taqqoslaymiz (4-rasm). Bu masala Zenkevich ilmiy ishida yechilgan. Masala tekis kuchlanganlik holatida yechilgan.




4-rasm. Rama uchun masalani qo'yilishi

Olingan qiymatlar solishtirib aytishimiz mumkinki, natijalar amaliy maqsadlar uchun qoniqarli va farq 10% dan oshmaydi. Shu bilan birga, kesma yaqinidagi farqlar katta nisbiy farqlarga ega, ammo mutlaq ma'noda, grafiklardan ko'rinib turibdiki, ular sezilarli emas (5-rasm).




a)



b)


5-rasm. Simmetriya o'qi bo'yicha kuchlanishlar

Kuchlanish konsentratsiyasining yoriq o'lchamiga bog'liqligini ko'rsatish uchun turli uzunlikdagi yoriqlarga ega bo'lgan ($x=5$; $y=l$, $l=0.2$; 0.4 ; 0.6 ; 0.8 ; 1 ; 2) quyidagi masala ko'rilgan (6-rasm).



6-rasm. Dastlabki yoriqqa ega bo'lgan yuklangan plastina

7-rasmda aniq ko'rinib turibdiki, yoriqdan $\Delta l=1$ masofadagi kuchlanishning qiymatlari bir-biriga yaqinlashadi va yoriqning kattaligi ma'lum bir zonadagi kuchlanishlarning taqsimlanishiga ta'sir qilmaydi (Sen Venan prinsipi). Yoriq plastinaning vertikal o'lchamini 40 % ni tashkil etganda, ya'ni yoriq uzunligi $l=2$ bo'lganda istesto xolati kuzatilyapdi. Bunday holda, yoriq allaqachon materialning berilgan o'lchamlari uchun magistral hisoblanadi va uning ta'siri butun jismning kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatini taqsimlashda ustunlik qiladi. 20% gacha bo'lgan yoriq o'lchamini chegara deb hisoblash mumkin, uning ta'siri lokal xarakterga ega.



7-rasm. Yoriq uchida normal kuchlanish qiymatining oshishi


Yoriq uchiga yaqin bo‘lgan kuchlanish qiymatlariga kelsak, bu yerda yoriq hajmining ta’siri kutilganidek muhim rol o‘ynaydi. Yoriq o‘lchami ikki baravar ko‘payganda normal kuchlanish qiymati 5.5% dan 7.7% gacha oshadi (yoriq uchigacha bo‘lgan masofa $\Delta l = 0.4$).

Dissertasiyaning “**Yoriqning siljishiga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlash**” nomli uchinchi bobida ishlab chiqilgan uzlukli ko‘chish usuli asosida olingan sonli natijalar keltirilgan. Ushbu usulni amalga oshirish yoriqlar mavjud bo‘lgan materiallarning asosiy xususiyatini ifodalovchi – kuchlanish intensivligi koeffitsientini taxminiy baholashga imkon beradi. Shuningdek, uzlukli ko‘chish usuli ham elastik, ham elastoplastik masalalarni, shu jumladan yoriqlar mexanikasi va tog‘ jinslari mexanikasi masalalarini hal qilishga imkon beradi.


Kuchlanish intensivligi koeffitsientini aniqlashning sonli usuli yoriqning davom etish chizig‘i bo‘ylab kuchlanish qiymatlarini qurish va yoriqning oxiriga yaqinlashganda uning asimptotasini topishga keltiriladi.

Kuchlanish intensivligi koeffitsientini (KIK) aniqlash uchun M. Siratorining ilmiy ishlarida yechilgan quyidagi masala qaraymiz. Masalani (klassik) na’munaning quyidagi fizik va geometrik parametrlari bilan ko‘rib chiqamiz: $P=1$, $E=2$, $\nu=0.27$; $a=0.2$ – qirqim chuqurligi; $\delta=0.1$ – qirqim kengligi. Turli chegaraviy shartlar qo‘llanilgan.


Grafiklardan ko‘rinib turibdiki, yon tarafida bog‘lanish sharnirli bo‘lgan hol yoriqning uchi yaqinidagi kuchlanish (8-rasm) taqsimotiga sezilarli ta’sir qiladi. Umuman olganda, yoriqlar ochilishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun, bu mustahkamlash usuli amaliyotda buzilish muammosini vaqtinchalik hal qilish uchun ishlatiladi. 9-rasmda har ikkala normal kuchlanish qiymatlariga asosan uzlukli ko‘chish usuli bilan hisoblangan KIKning qiymatlari va M.Siratori tomonidan olingan yechim keltirilgan.



a)




b)




c)

8-rasm. Yoriq chizig'i bo'ylab normal kuchlanishlar





9-rasm. 1- σ_x ni qiymatlaridan formula yordamida topilgan KIK. 2- σ_y ni qiymatlaridan formula yordamida topilgan KIK. 3- σ_x ni qiymatlaridan sonli usulda topilgan KIK. 3- σ_y ni qiymatlaridan sonli usulda topilgan KIK.

Ko'rib turganingizdek, M.Siratori formulasiga asosan olingan natijalar, hisob-kitoblardan olingan qiymatlardan biroz ustundir. Buning sababi shundaki, uzluksiz ko'chishlar usulida kuchlanishlarni hisobga olish ko'chishlarni hisobga olgandan ko'ra kamroq aniqlikka ega va KIK ni ko'chish qiymatlari yordamida topish afzalroqdir.



10-rasm. Bitta markaziy yoriqqa ega bo'lgan na'munaning yuklanishi

Yuqorida keltirilgandek, yon tomonidan sharnir vositasida maxkamlanish cho'zilish (yoki siljish)da kuchlanish konsentratsiyasini kamaytirar ekan, lekin bu yondashuvni doim xam qo'llay olmaymiz. Boshqa yo'lni ko'rib chiqamiz va yoriqning rivojlanishini sekinlashtiradigan qurilmalarni yaratishning umumiy prinsipini aniqlaymiz (10-rasm). Quyida yon tomoni sharnir vositasida bog'langan va yoriq ochilmaslik uchun siquvchi kuch berilgan holatni ko'ramiz. Masalani ushbu fizik va geometrik kattaliklarda ko'rib chiqamiz: $P=5$, $E=2$, $\nu=0.3$; $r=0.1$ – teshik radiusi; p – teshikdagi taqsimlangan siquvchi kuch ($\Delta\alpha=\pi/3$).



11-rasm. p ning turli qiymatlarida solishtirma grafik

11-rasmdan ko'rishimiz mumkinki, tashqi yukning $p=P \cdot 20\%$ miqdorida, taqsimlangan siquvchi kuch oshgani bilan kuchlanish konsentratsiyasining qiymati

sezilarli darajada kamaymayapdi. Bundan teshiklardagi siquvchi kuchning qiymati $p=P \cdot 20\%$ bo'lganda (stringerlar o'rnatiladigan joyda) kuchlanish konsentratsiyasining qiymatlari barqarorlashishi xulosa qilingan. Agar yoriqlar nazariyasi masalalarini yechishda asosiy omil yoriq rivojlanishi boshlanishidagi kuchlanish intensivligi koefitsientini aniqlash bo'lsa, plastik buzilishda yoriq atrofidagi katta plastik zona tufayli to'liq masshtabli parametr - J integral qo'llaniladi. Kichik masshtabdagi oquvchanlik xolatida J - integral va KIK orasidagi bog'lanishni quyidagicha keltirish mumkin:


$$\text{TDH uchun } J = \frac{K_I^2}{E} (1 - \nu^2) \text{ va TKH uchun } J = \frac{K_I^2}{E}, \quad (17)$$

Bu yerdan J -integral orqali yoriqning ochilish qiymatlarini topish mumkin

$$\delta = \frac{J}{\sigma_t} = \frac{K_I^2}{E \sigma_t} \text{ yoki } \delta = \frac{4K_I^2}{\pi E \sigma_t}, \quad (18)$$

Tekis taqsimlangan yuklanish ta'siridagi bitta chegaraviy yoriqqa ega bo'lgan na'munani cho'zilishi masalasini ko'ramiz (12-rasm):

$$\sigma = \frac{E \cdot \sigma_t (\varepsilon + C)}{\sigma_t + E \cdot C} \text{ bu yerda } C=0.2333, E=206 \text{ ГПа } (2.1 \cdot 10^6 \text{ КГ/см}^2), \nu=0.3, \sigma_t=480 \text{ МПа } (4900 \text{ КГ/см}^2).$$



12-rasm. Yoriqqa ega bo'lgan plastina sxemasi


Bu hol uchun ham KIK M.Siratori ishlarida jadval ko'rinishida keltirilgan:

$$K_I = F(l/H) p \sqrt{\pi l} \quad (19)$$


$$\text{bu yerda } F = 1.12 - 0.231 \frac{l}{H} + 10.55 \left(\frac{l}{H} \right)^2 - 21.72 \left(\frac{l}{H} \right)^3 + 30.39 \left(\frac{l}{H} \right)^4.$$

Yoriqning uchida plastik oquvchanlik kuzatiladi. Yuqoridagi formuladan $K_I=43343.17 \text{ N/m}^{1.5}$ KIK hisoblangan.

$$J = \frac{K_I^2}{E} \approx 9.11 \cdot 10^{-3} \text{ Дж/м}^2, \delta = \frac{J}{\sigma_t} = \frac{K_I^2}{E \sigma_t} \approx 19 \cdot 10^{-6} \text{ m (ruxsat etilgan chegara 0.2mm)}.$$




13-rasm. Kuchlanish intensivligi izolinasi (Prandtl nazariyasi)



14-rasm. Kuchlanish intensivligi izolinasi (Ilyushin nazariyasi)


Prandtl-Reyss, Prager nazariyalari bo'yicha va Ilyushinning plastiklikning deformatsiya nazariyasi bo'yicha hisob-kitoblar ularning farqini ko'rsatdi va shuning uchun bu masalada oddiy yuklanish shartlari kuzatilmaydi (13-14-rasm).

Keyingi masala sifatida muntazam parallel yoriqlarga ega bo'lgan tog' jinslari qarang. Ishlab chiqilgan metodika asosida masala yechiladi va anizotrop muhit sifatida qaranganda jismdagi kuchlarning taqsimlanishi ko'rsatilgan. Masalada quyidagi qiymatlar qabul qilinadi: $E_x=10^4\text{MPa}$, $E_y=1.2\cdot 10^4\text{MPa}$, $\nu_{xy}=0.2$, $G_{xy}=5000\text{MPa}$, anizotropiya o'qi og'ish burchagi 45° (15-rasmda ko'rsatilganidek), $p_y=-5000\text{ KPa}$. Barcha anizotropiya bo'ylab urunma moduli bir xil $G_k=0.1G_{xy}$, $\sigma_t=100\text{MPa}$.




15-rasm. Muntazam yoriqlar tizimiga ega bo'lgan massiv

Masalada bir parametrlı yuklanish bo'lgani uchun, deformatsiya trayektoriyalari oddiy yuklashga yaqin bo'ladi. Hisoblash natijalarini 16-17 rasmlarda ko'rish mumkin ($x=3.8$, $y=3.8$, deformatsiya qiymatlari modul bo'yicha olinadi). Qirqim bo'lishiga qaramay, yuklanish trayektoriyasi oddiy yuklanishga yaqin ekanligini ko'rish mumkin.



16-rasm. $\varepsilon_y \sim \varepsilon_x$ deformatsiya traektoriyasi



17-rasm. $\varepsilon_y \sim \gamma_{xy}$ deformatsiya traektoriyasi

Bu shuni ko'rsatadiki, bu ko'rinishdagi yuklanish ostida kuchlanish konsentratorining mavjudligi deformatsiya trayektoriyasiga kam ta'sir qiladi.

XULOSA

“Plastik deformatsiyani hisobga olgan holda yoriqlarga ega bo'lgan materiallarni mustahkamligini hisoblash usulini ishlab chiqish” mavzusi falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Yoriqlarga ega bo'lgan plastinalarda kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatini aniqlashga doir noxiziqli masala shakllantirilgan va chikli soha uchun yechish usuli ishlab chiqilgan hamda unga asoslangan chegaraviy integral tenglamaning mavjudligi va yagonaligi to'g'risidagi teorema isbotlangan;

2. Uzlukli ko'chishlar usuliga asoslangan elastoplastik masalalarni yechishning sonli usuli takomillashtirildi. Takomillashtirilgan usul cheksiz ikki o'lchovli muhitda yoriq tizimlarini modellashtirish algoritmining tavsifini berish imkonini berdi.

3. Kuchlanish konsentratsiyasining yoriq uzunligiga bog'liqligi asoslandi va dastlabki yoriq (kuchlanish konsentratori) mavjud bo'lgan hol uchun chegaraviy shartlarining kuchlanish konsentratsiyasiga ta'siri aniqlangan.

4. Olingan natijalarga asosan bitta markaziy yoriqqa ega bo'lgan materiallarni mustahkamlash usuli taklif qilindi va kichik o'lchamdagi oquvchanlikda J -integralni sonli baholash amalga oshirildi.

5. Elastoplastik masala uzlukli ko'chish usuli asosida yechildi va murakkab yuklanishning deformatsiya traektoriyalari qurildi. Olingan natijalar

asosida kuchlanish konsentratori yaqinidagi yuklash jarayonlarining murakkablik darajasi ko'rsatildi.

6. Anizotrop muhit sifatida muntazam yoriqlar tizimiga ega bo'lgan materiallarni hisoblash usuli keltirildi. Keltirilgan usul tog' tunnellari misolida yangi kuchlanish konsentratorining paydo bo'lishi umumiy konstruksiyaning kuchlanish taqsimotiga ta'sirini baholash imkonini beradi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.02/30.12.2019.T/FM.61.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ИНСТИТУТЕ МЕХАНИКИ И
СЕЙСМОСТОЙКОСТИ СООРУЖЕНИЙ**

ИНСТИТУТ МЕХАНИКИ И СЕЙСМОСТОЙКОСТИ СООРУЖЕНИЙ

АДИЛОВ ФАРХАДЖАН ФОЗИЛЖОНОВИЧ

**РАЗРАБОТКА МЕТОДА РАСЧЕТА НА ПРОЧНОСТЬ
ТРЕЩИНОВАТЫХ МАТЕРИАЛОВ С УЧЕТОМ ПЛАСТИЧЕСКОГО
ДЕФОРМИРОВАНИЯ**

01.02.04 – Механика деформируемого твердого тела

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № B2022.4.PhD/FM511

Диссертация выполнена в Институте механики и сейсмостойкости сооружений им. М.Т. Уразбаева Академии наук Республики Узбекистан.

Афтореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском) размещен на веб-странице Научного совета (www.instmech.uz) и информационно-образовательном портале "Ziyonet" (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Абиров Рустам Абдуллаевич
доктор физико-математических наук, с.н.с.

Официальные оппоненты:

Ахмедов Акрам Бурханович
доктор физико-математических наук,
профессор

Абдусатторов Абдусамат
доктор технических наук, профессор

Ведущая организация:

Ташкентский архитектурно-строительный университет

Защита диссертации состоится «21» февраль 2024 года в 14⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.02/30.12.2019. T/FM.61.01 при Институте механики и сейсмостойкости сооружений Адрес: 100000, г. Ташкент, ул. Дурман йули, 33, зал заседаний – 1. Тел.:(99871) 262-71-52; факс:(99871) 262-71-32, e-mail: instmech@academy.uz.

С диссертацией (PhD) можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Института механики и сейсмической стойкости сооружений (регистрационный номер -19). Адрес: 100000, г. Ташкент, ул. Дурман йули, 33. Тел. (99871) 262-71-32.

Автореферат диссертации разослан «2» февраль 2024 года.
(реестр Протокола рассылки № 19 от «2» февраль 2024 года)



М.М. Мирсаидов
Председатель Научного совета по
присуждению ученых степеней,
д.т.н., профессор, академик АН РУз

М.К. Усаров
Ученый секретарь Научного совета
по присуждению ученых степеней,
д.ф.-м.н., профессор

Б.Э. Хусанов
Председатель Научного семинара при
Научном совете по присуждению
ученых степеней, д.ф.-м.н., с.н.с.

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире в сфере сейсмостойкого строительства, авиастроении, машиностроении и др. встречается проблемы, связанные с решением задач накопления повреждений и развития трещин в материалах. Исследование проблем прочности и разрушения твердых тел, трещиностойкости новых материалов в настоящее время представляется важной проблемой как в теоретическом, так и в прикладном аспектах. Во многом это связано не только с теоретическими изысканиями, но и широким набором проводимых экспериментальных исследований.

В мире особое внимание уделяется проведению научно-исследовательских работ по построению, а также обоснованию математических моделей возникновения и распространения трещин в упругой или пластической средах под воздействием внешней нагрузки, а также численных методов решения этих задач. Развитие трещин в строительстве, трубопроводном транспорте, энергетическом секторе, машиностроении приводит к колоссальным экономическим потерям. Оценка напряженно-деформированного состояния тел, имеющих особенность на фронте трещины, при моделировании распространения трещины является одной из необходимых задач, требующих своего решения при обеспечении прочности конструкции. Отчасти эти задачи могут быть решены с помощью методов предлагаемых в данном исследовании.

В нашей республике на сегодняшний день большое внимание уделяется внедрению новых методов обеспечения сейсмической безопасности населения и повышению сейсмостойкости различных сооружений. В указе Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года УП-60 “О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы”², в том числе с учетом « ...”точек роста” регионов особое внимание уделяется строительству объектов инженерно-коммуникационной и социальной инфраструктуры...», определены важнейшие задачи. При их реализации из необходимых задач рассматриваются исследования по разработке эффективных методов обеспечения герметичности объектов с использованием нового типа фибробетона, базальта и других материалов.

Данное диссертационное исследование в определенной степени отвечает УП № 144 от 30 мая 2022 года “О мерах по дальнейшему совершенствованию системы сейсмической безопасности Республики Узбекистан”, ПП-158 от 16 мая 2023 года “О дополнительных мерах по дальнейшему совершенствованию системы сейсмической безопасности населения и территории Республики Узбекистана”, а также служит в реализации задач, поставленных в ПП-4794 от 30 июля 2020 года “О мерах по коренному совершенствованию системы обеспечения сейсмической безопасности

² Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года УП-60 «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы»

населения и территории Республики Узбекистан” и других нормативно-правовых актах, связанных с данной деятельностью.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологии республики. Данное исследование выполнено в рамках приоритетного направления IV «Математика, механика и информатика» программы развития науки и технологии республики.

